



## MILLIY LIBOSLARNI ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARI ORQALI TARG'IB QILISH

**Raximova Kamola G'ayratovna**  
**Allanazarova Nozima Botir qizi**  
**Turdiyeva Maftuna Eshmamat qizi**

raximovakamola96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20025296>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil  
Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil  
Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

### KEY WORDS

Milliy libos, marketing, ijtimoiy tarmoq, influencer, brend storytelling, raqamli reklama, Surxondaryo, sanoat ko'rsatkichi, madaniyat, onlayn savdo.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada milliy liboslarning madaniy va iqtisodiy ahamiyati, ularni zamonaviy marketing vositalari orqali keng ommaga targ'ib qilish usullari yoritilgan. Muallif milliy kiyimlarning ijtimoiy tarmoqlar, raqamli marketing, influencerlar va onlayn savdo orqali qanday ommalashib borayotganini ko'rsatadi. Statistika ma'lumotlar asosida yillik ishlab chiqarish hajmidagi o'sish tendensiyalari tahlil qilinadi, ayniqsa Surxondaryo viloyati misolida. Shuningdek, "brend storytelling" kabi zamonaviy marketing yondashuvlari milliy liboslarga bo'lgan ishonch va qiziqishni qanday oshirayotgani haqida fikr yuritilgan. Maqola milliy o'zlikni anglash, madaniyatni asrash va iqtisodiy rivojlanishning uyg'unlashuvini ko'rsatadi.*

Milliy liboslar - har bir millatning madaniy merosi, an'alarining yorqin ifodasi va milliy identifikator hisoblanadi. Ular o'zining noyob naqshlari, rang-barangligi va ma'nosi bilan millat tarixini, urf-odatlarini aks ettiradi. Zamonaviy davrda milliy liboslarni nafaqat madaniy qadriyat sifatida saqlash, balki keng ommaga tanitish va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish muhim vazifaga aylandi. Buning uchun esa zamonaviy marketing vositalaridan samarali foydalanish zarur.

Milliylik deganda faqat libos emas, balki millatning tarixini, an'alarini, xalqning ruhiyati tushuniladi. Ular orqali millat o'zligini anglaydi, yosh avlod esa o'z merosini qadrlashni o'rganadi. Shu bilan birga, milliy liboslar mamlakat iqtisodiyotiga ham salmoqli hissa qo'shib kelmoqda, ayniqsa, turizm sohasida milliy liboslar turistlarni jalb qilishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy marketing vositalari ichida ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, TikTok), influencer marketing, raqamli reklama, onlayn savdo platformalari va video marketing alohida o'rin tutadi. Ushbu vositalar yordamida milliy liboslar yoshlar orasida keng tarqalib, ommaviylashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda milliy liboslar haqida qiziqarli va interaktiv kontent yaratish orqali ularning chiroyi va madaniy ahamiyati bilan yoshlar qalbidan joy olmoqda.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik) statistikasi

#### 1-jadval

Yillik ko'rsatkich	Klassifikator
38119,0	2010
47587,1	2011
57552,5	2012
70634,8	2013
84011,6	2014
97598,2	2015
111869,4	2016
148816,0	2017
235340,7	2018
322535,8	2019
368740,2	2020
456056,1	2021
553265,0	2022
658991,7	2023
880198	2024

2010 yilda ko'rsatkich 38,119.0 bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda u 880,198.5 ga yetgan. Bu davrda yillik ko'rsatkichlar barqaror ravishda o'sib borib, taxminan 23 barobarga ko'paygan. Ayniqsa, 2017 yildan keyin o'sish sur'ati sezilarli darajada tezlashgan. Bu o'sish iqtisodiy yoki ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridagi ijobiy tendensiyani ko'rsatadi.

Quyidagi 2-jadvalda Surxondaryo viloyatida 2010 yildan 2024 yillarda davomida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishi keltirilgan.

2-jadval

Surxondaryo viloyati ko'rsatkichi	Klassifikator
756,4	2010
925,8	2011
1101,8	2012
1321,4	2013
1615,3	2014
2200,7	2015
1910,7	2016
2356,4	2017
3234,7	2018
5322,7	2019
4231,3	2020
6675,3	2021
7229,8	2022
8848,6	2023
13819,8	2024

2010 yilda ko'rsatkich 756,4 ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu raqam 13819,8 ga yetgan. Bu davr ichida ko'rsatkich taxminan 18 barobar o'sgan, bu esa hududda iqtisodiy faollik yoki ishlab chiqarish hajmining sezilarli oshganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2018 yildan keyingi yillarda (2019, 2021, 2023 va 2024 yillarda) keskin o'sish kuzatilgan - bu yillarda ikki yoki hatto uch barobar oshish holatlari mavjud. 2016 yilda qisqa pasayish (2200,7 - 1910,7) qayd etilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu to'liq tiklangan.

Ijtimoiy tarmoqlar milliy liboslarni targ'ib qilishda eng samarali platformalardan biri hisoblanadi. Instagram va Telegram kabi platformalarda milliy liboslarda o'ziga xos uslubdagi

videolar, foto va hikoyalar keng auditoriyaga taqdim etiladi. Shu bilan birga, mashhur influencerlar orqali milliy liboslar brendlari haqida axborot tarqatish yoshlar e'tiborini jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu marketing usuli milliy liboslarning zamonaviylik bilan uyg'unlashishini ta'minlaydi.

### 3-jadval

No	Platforma	Ta'sir ko'rsatayotgan yoshlar ulushi (%)
1	Instagram	68%
2	TikTok	73%
3	YouTube	52%
4	Telegram	34%
5	Pinterest	21%

Zamonaviy bozor talablariga javoban, milliy liboslarni onlayn sotish imkoniyatlari kengaymoqda. Internet do'konlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlarga qulaylik bilan milliy kiyimlar yetkaziladi. Shuningdek, brend storytelling ya'ni brendning o'z tarixi, qadriyatlari va maqsadlarini hikoya qilish marketing strategiyasi - milliy liboslarga qo'shimcha qiymat yaratadi. Bu esa xaridorlarda mahsulotga nisbatan ishonch va qiziqishni oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozim, milliy liboslarni zamonaviy marketing vositalari orqali targ'ib qilish milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat milliy kiyimlarning madaniy ahamiyatini yanada oshiradi, balki ularni iqtisodiy jihatdan ham foydali qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, influencerlar va raqamli platformalar yordamida milliy liboslar yoshlar orasida ommalashib, milliy o'zlikni anglashda muhim vositaga aylanmoqda. Shunday qilib, zamonaviy marketing strategiyalari milliy kiyim-kechak sohasining rivojlanishida yangi marralarga erishilmoqda.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev, M. (2020). O'zbekiston milliy kiyimlari tarixi va dizayni. Toshkent: Madaniyat nashriyoti.
2. Karimova, N. & Rustamov, D. (2021). "Milliy kiyimlarni zamonaviy marketing strategiyalari orqali targ'ib qilish," Marketing va Biznes jurnali, 12(3), 45-52.
3. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdani qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Ijodiy manbadan foydalanib kostyum dizayni loyihasini yaratish texnologiyasi" eurAsian JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 101-108 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545303>
4. Ismoilova, S. (2019). Milliy liboslarning madaniy ahamiyati va rivojlanishi. Samarqand: San'at nashriyoti.
5. Урозов М.К., Тошбеков О.А., Рахимова К. Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари. Eurasian Journal Of Academic Research. 2022. Vol 2, № 13. P. 784–788; [01.00.00, №51]. 5. Raximova Kamola G'ayratovna "Issiqni saqlash xossasi yuqori bo'lgan gazlamalardan chaqaloqlar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 page 115-122 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545839>
6. M.K. Uroзов, K.G. Rakhimova, M.A. Fayziyeva, A.Z. Mustanova "Creation of new assortiments of sewing items from fabrics of mixed fiber structure page 227-231 DOI:

- <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-11-51> <https://eipublication.com/index.php/eijmrms>  
Volume: 02 Issue: 11 November 2022 Published Date: - 23-11-2022/
7. M.K. Urozov, K.G. Rakhimova, M.A. Fayziyeva, A.Z. Mustanova «RATIONAL USE OF FABRICS WHEN SEWING WOMEN'S OUTERWEAR IN THE NEW STRUCTURE» page 28-31 DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-11-08> <https://eipublication.com/index.php/eijmrms>  
Volume: 02 Issue: 11 November 2022 Published Date: - 09-11-2022
8. Rakhimova Kamola Gayratovna "CREATING A RANGE OF MODERN CLOTHES FOR GIRLS" American Journal Of Applied Science And Technology page 13-18 Volume 04 Issue 07-2024 10. <https://www.theusajournals.com/index.php/ajast/article/view/3340>
9. Raximova K. ., & Boltayeva I. . (2025). MODANING YOSHLAR DUNYOQARASHI VA IJTIMOY HAYOTIDAGI O'RNI. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(9), 81–85. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/59945>. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17152052>
10. Raximova K., & Boltayeva I. (2025). DIZAYNING DUNYO USLUBLARIDAGI O'RNI. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(9), 86–90. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/59946>. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17152422>
11. Rakhimova Kamola Gayratovna, Abdiyeva Sabrina Sheraliyevna "KOSTYUM KOMPOZITSIYASIDA NAQSHNING MUHIM AHAMIYATINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH" Journal of Innovation, Creativity and Art Vol.4, No.5,2025 ISSN:2181-4287. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/document%20(45).pdf
12. Rakhimova Kamola Gayratovna, Abdiyeva Sabrina Sheraliyevna "XROMATIK RANGLARNI FIZIK XUSUSIYATLARI O'RGANISH VA ULARNI LIBOSLARDA QO'LLASH" Journal of Innovation, Creativity and Art Vol.4, No.5,2025 ISSN:2181-4287. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/document%20(2)%20(4).pdf
13. Raximova K. ., Allanazarova N. ., & Turdiyeva M. (2025). ETNODIZAYN: AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG'UNLIGI. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(10), 131–136. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/62473>. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17394509>
14. Rakhimova Kamola Gayratovna, Baynazarova Lobar Xamdam qizi "ANALYSIS OF STYLE TYPES OF CLOTHES" American Journal Of Applied Science And Technology (ISSN – 2771-2745) <https://doi.org/10.37547/ajast/Volume04Issue07-05>
15. Raximova Kamola G'ayratovna "Issiqni saqlash xossasi yuqori bo'lgan gazlamalardan chaqaloqlar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 page 115-122 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545839>
16. Rakhimova K.G. "Talabalarga imkoniyati cheklangan bolalar kiyimlarini tikish usullarini o'rgatish texnikasi" Eurasian journal of academic research page 142-148 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11263298>
17. Dadamirzayev B.B. Axmadjanov A.O. "BOLALAR SPORT USLUBIDAGI KIYIMLARI UCHUN GAZLAMA TANLASH TADQIQI" "Экономика и социум" №6(97)-2 2022 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 57-60 b.
18. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdam qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish"

EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June  
2024 ISSN 2181-2020 Page 109-114 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545775>



INNOVATIVE  
ACADEMY